

OILADA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNI TARAQQIY ETISHI

Toshboltayeva Nodira Ibrohimjonovna
FARDU psixologiya kafedrası o‘qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19369395>

Annotatsiya: Barcha davrda ham oila va oilaviy munosabatlar masalasi o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan. Bu borada sharq allomalari o‘zlarining qimmatli fikrlarini ilmiy o‘rganganlar.

Kalit so‘zlar: shaxs, taraqqiyot, oilaviy munosabatlar, hamkorlikda ishlash, omillar, barqarorlik, tafakkur mustaqilligi.

РАЗВИТИЕ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ

Тошболтаева Нодира Иброхимжоновна
ПРЕПОДАВАТЕЛЬ КАФЕДРЫ ПСИХОЛОГИИ ФЕРГУ.

Аннотация: Во все времена вопрос семьи и семейных отношений не терял своей актуальности. Восточные мыслители посвящали этой теме свои ценные труды и излагали научные взгляды.

Ключевые слова: личность, развитие, семейные отношения, сотрудничество, факторы, стабильность, независимость мышления.

DEVELOPMENT OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN THE FAMILY

Tashboltayeva Nodira Ibrokhimjonovna
LECTURER, DEPARTMENT OF PSYCHOLOGY, FERGU

Abstract: the issue of family and family relations has not lost its relevance in all times. In this regard, the scholars of the East have scientifically studied their valuable thoughts.

Key words: personality, development, family relations, cooperation, factors, stability, independence of thought.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar mazmunida oila manfaatlarini huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan himoya qilishni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

Ma'lumki, insoniyat jamiyat taraqqiy etib brogan sari odamlarning o'zlari ham ularning bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari ham ayniqsa shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib o'ziga hos tarzda takomillashib boradi. Sababi: Xozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari, taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi, sa'noat ishlab chiqarishi, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yarartuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga inson shaxsiga ham o'ziga xos yangicha talablar qo'ymoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshka o'zgarishlar odamlarning o'zaro muloqot munosabatlari doirasini ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda o'tmishdoshlarimizda kuzatiladigan tabiiylikni ma'lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqishlarning yuzaga kelishga asos bo'lmokda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda xam o'z ifodasini topadi.

XX asr boshlaridagi milliy taraqqiyparvar harakat vakillari, jadidlar jamiyatni, jumladan, oilani isloh qilish uchun kurashganlar. Ulardan biri Abdurauf Fitratdur. Fitrat “Oila” asarida oila asosini to'g'ri qurish, oilada yosh avlodga jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya berish orqali mana shu turg'unlikdan jamiyatni isloh qilish mumkinligini bayon qilgan. Oila jamiyatning birinchi va

birlamchi zarrasidir, er va xotin ikki tirik vujudning ittifoqidan paydo bo’lgan uchinchi bir olam — bu oiladir.

Oila — tarixan tarkib topgan o’ziga xos va mos ijtimoiy guruh bo’lib, uning a’zolari bir-birlari bilan nikoh, qon-qarindoshlik, umumiy turmush va o’zaro huquqiy, axloqiy va boshqa munosabatlar bilan bog’langandir. Oila nikoh zaminida vujudga keladi. Nikoh esa erkak va ayol orasidagi munosabatlarning jamiyat tomonidan tan olingan, ma’qullangan ifodasi hisoblanadi.

Insonning insonligini ifodalovchi yagona mezon aql-idrok, ong va tafakkur darajasi bo’lsa, ularning mohiyatini ochib beruvchi, ularning miqyosi va ko’lamiga baho beruvchi bosh mezon xatti-harakatlari, amallari, hayotga va atrof-muhitga munosabat, o’z-o’zini boshqarishdagi ichki qudratidir. Ota-bobolarimiz aqlli kishida uchta xislat bo’ladi, deyishadi. Bu – o’zgarar narsa so’rasa, odob bilan javob beradi, birovdan yomonlik ko’rsa ham yaxshilik qiladi, xalqi uchun foydali fikrlarni ilgari suradi. Bunday sifatlarning shakllanishida ham albatta oila va ota-ona shaxsi o’zining ta’sirini o’tkazadi. Shu bilan birga bola shaxsini mustaqil, erkin fikrlaydigan etib tarbiya topishida ham oila a’zolarining o’rni beqiyosdir.

Odam bolasining baxt va baxtiyorlik haqidagi tushunchalariga “Avesto” uch ming yil burun oydinlik kiritgan ekan. Demak, qadimgi ajdodlarimiz e’tiqodiga ko’ra, baxt qop-qop tilla va tanga emas, balki oddiy tilda aytganda uy bekasi, farzandlar baxti ekan. Har bir oila ijtimoiy tizim struktura sifatida jamiyat oldida ma’lum bir vazifalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy vazifalari haqida gapirganda, bir tomondan jamiyatning oilaga ta’sirini, ikkinchi tomondan esa umumiy ijtimoiy tizimda oilaning o’rnini, oilaning hal qiladigan ijtimoiy (jamoatchilik) vazifalarini hisobga olish lozim. Barcha oldingi jamiyatlarda oila quyidagi asosiy vazifalarni bajargan: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulativ (boshqaruv). Bu haqda Sharq allomalari Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Ahmad Donish va boshqalar o’z asarlarida yozib qoldirganlar. Albatta, bu sanab o’tilganlar hozirgi zamon oilasini asosiy vazifalarining yagona klassifikatsiyasini tashkil eta olmaydi. Chunki ayrim manbalarda: naslni davom ettirish, tarbiyaviy, xo’jalik va o’zaro yordam kabi vazifalar hozirgi zamon oilasining muhim vazifalari sifatida ko’rsatib o’tilgan, sotsiolog olimlar (U.M.Sverdlov, V.A.Ryasensov, V.P.Klyuchnikov) esa inson zotini davom ettirish, bolalarni tarbiyalash va xo’jalik vazifalarini farqlaydi; S.D. Laptенок xo’jalik-maishiy, aholi sonini qayta tiklash, tarbiyaviy va oila a’zolari dam olishi — hordig’ini tashkil etish; N.G.Yurkevich — ma’naviy muloqot, seksual, bolalarni dunyoga keltirish, tarbiya jarayonidagi hamkorlik, uy xo’jaligini yuritish uchun zarur vositalarni ta’minlash, dam olishni tashkil qilish, o’zaro moddiy va ma’naviy qo’llab-quvvatlash; A.G. Xarchev — aholi sonini qayta tiklash, ijtimoiylashuv, xo’jalik, iste’mol va dam olishni tashkil qilish kabilarni farqlaydi. Mana yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki, qator oilashunos mutaxassislar tomonidan oilaning asosiy vazifalari turlicha klassifikatsiya qilinmoqda. Bu o’rinda oila vazifalarini shunchaki sanab o’tish emas, balki ularni bir tomondan odamlarning moddiy, xo’jalik-maishiy va ikkinchi tomondan emotsional va ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini qondiruvchi vazifalarga farqlash muhim. Shuni ham aytib o’tish joizki, hozirgi zamon oilasida emotsional va ijtimoiy-psixologik jarayonlarni qondirish vazifasining ahamiyati ortib bormoqda. Hatto sof moddiy xarakterga ega bo’lgan vazifalarda ham hissiylik ko’proq tus olib bormoqda. Hissiy, emotsional kontaktlarning ahamiyati shahar oilalarida kuchliroq anglanmoqda. Qishloq oilalari esa uy hayvonlari va tomorqa yerlarining borligi evaziga shahar oilalariga qaraganda jamiyatning ishlab chiqaruvchi bo’g’inini, ishlab chiqaruvchilik vazifasini ko’proq saqlab qolmoqda. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida bugungi zamon oilasining asosiy vazifalari qatorida quyidagilarni sanab o’tish mumkin: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulativ (boshqaruv), felitsitologik kabilar.

“Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo’ladi”, deb yozadi mazkur asarda. Oila mamlakatimizda o’tkazilayotgan iqtisodiy va ma’naviy islohotlarni amalga oshirishda sifat jihatidan yuksak pog‘onaga ko’tarishda, moddiy va ma’naviy jihatdan tayanch vazifasini bajaradi.

Oilaviy munosabatlarning madaniyati takomillashuvi oilada er-xotin munosabatlariga bog‘liqdir. Ota-onaning farzandlar tarbiyasi bilan ko‘proq shug‘ullanishiga e’tibor bersak, yoshlarni barkamol etib tarbiyalash jamiyat va oilada tutgan o‘rni, bilimi, ma’naviy, madaniy saviyasiga bog‘liq.

Dunyoga kelgan go‘dak ona, avvalo onaning mehrini his qiladi va faqat uning himoyasiga muhtoj bo‘ladi. Zero, bu go‘dakni dunyoda hech kim onachalik himoya qilishga shay va unga onalik mehri berishga tayyor turmasa kerak. Norasida go‘dak o‘z onasining muhabbatini tabiatan his qiladi. Undan najot istaydi. Ayni paytda bu ikki zot hech bir so‘zsiz bir-birini his qiladi, tushunadi. Ehtimol, shuning uchun ham Abdulhamid Cho‘lpon alla aytishning mo‘jizaviy ta’siriga e’tibor qaratgan: “Bir bola uhlasa, alla aytaylik. Bola tez uxlab ketar, chunki ul bir lazzat qilur”.

Oilada axloq va odobning dastlabki urug‘lari tomir otadi va shaxs ma’naviy kamolotiga zamin bo‘ladi. Oiladagi axloq, odob tarbiyasi o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi. “Ota-ona farzandlariga berayotgan tarbiya inson shaxsi shakllanishining birinchi poydevoridir. Bu poydevor inson ma’naviy olami degan jarayonning hammasi emas, balki boshlanishi. Bu poydevor aql, idrok, mas’uliyat bilan barpo etilgan bo‘lsa, uning ustiga go‘zal, mustahkam bino qurish mumkin. Bu binoning chiroyi, naqshlari inson hayotining barcha davrlarida shakllanib, sayqal topib boradi.” Darhaqiqat, binoni chiroyli ko‘rsatish usta dizaynerlarga bog‘liq bo‘lsa, bolalardagi go‘zal xulqni shakllantirish, rivojlantirish va namoyon qilish birinchi navbatda ota-onaning vazifasidir. Ota-ona bolaning shakllanayotgan shaxsiga ko‘p tomonlama ta’sir ko‘rsatadi.

Oiladagi tarbiyaviy jarayon o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, uning oxiri va boshi yo‘q. Biz bolani tug‘ilgandan boshlab tarbiyalaymiz. Bola ota-onasining xatti-harakatlarini taqlid qilish orqali o‘rganadi, hatto og‘zidan nima chiqsa o‘shani qaytaradi. Demak, ota-ona bola shaxsini shakllanishi uchun ideal tarbiyachi bo‘lishi kerak. Oiladagi tarbiyaviy jarayon avvalo bola bilan ota-ona o‘rtasidagi doimiy muloqotdir. Bolaning tarbiyasi yaxshi bo‘lishi uchun uni sevish kerak. Bolaning qalbiga quloq sola bilishimiz muhim. Ota-ona o‘rtasidagi nizolarning kelib chiqishining sabablaridan biri bolaga e’tibor bermasligidadir. Nima uchun biz hamkasblarimiz bilan, do‘stlarimiz bilan qancha muloqotda bo‘lsak ham qoniqmaymiz-u, lekin farzandimiz bilan kam muloqotda bo‘lamiz?

Bolalar bilan ota-ona o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tashkilashtirish uchun turli to‘siqlar xalaqit beradi. Jumladan, band bo‘lish “to‘siq‘i” – ota-onalar doimo band bo‘lishadi, bolaga e’tibor berolmaydilar, chunki ularning uy yumushlari ko‘p. Bu bolada hissiy rivojlanishning to‘xtashiga olib keladi. Ikkinchi to‘siq – yoshga bog‘liq “to‘siq” bo‘lib, bunda kattalarning yoshi ulug‘ bo‘lgani uchun bolani tushunmaydilar. Bolaning ichki dunyosini hisobga ololmaydilar. Kattalar uchun arziyas narsalar bola uchun muhim bo‘lishi mumkin. Eski qolip “to‘siq‘i” – ota-onalar o‘zining bolasini yoshi ulg‘ayib borayotganini sezishmaydi. Farzand ulg‘ayib borgan sari ota-onasining u bilan hisoblashishlarini istaydi. Shuning uchun ular o‘rtasida tushunmovchiliklar, nizolar tug‘iladi. Biz kattalar farzandlarimiz bizni doimo tinglashlarini xohlaymiz, bizga bo‘ysunishlarini istaymiz. Ularning mustaqil fikrlarini eshitishga erinib qolamiz. Demak, kattalar bolaga nisbatan eski qarashlarini yo‘qotishlari lozim. Shunda o‘rtadagi to‘siq yo‘qoladi. Yosh avlodni har tomonlama mukammal shaxs qilib tarbiyalashdek mas’uliyatli vazifa ota-ona yelkasidadir.

Darhaqiqat, inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi; xususan bolada iroda, odatlar, fe’l-atvor, xulq, atrofga munosabat, e’tiqod va qarashlar vujudga keladi. Ana shulardan kelib chiqqan holda turmushda insonni kamol toptirish sharoitlari, ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarini izchil

o’rganmay turib, shaxsning xususiyatlari va ularni keltirib chiqaruvchi omillar to’g’risida fikr yuritish mumkin emas. Ma’lumki, oila ijtimoiy-tarixiy belgiga ega bo’lgan muayyan tuzilishli ijtimoiy guruhning ko’rinishi. Chunonchi, uning a’zolarini qarindosh-urug’chilik, nikoh, turmush sharoiti birligi, odob-axloq umumiyligi, ma’naviy ehtiyoj mosligi kabi aloqalar o’zaro bog’lab turadi. Oila murakkab ijtimoiy guruh bo’lib, biologik, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. Shu sababdan turmushdagi va oila a’zolari munosabatlaridagi o’zgarishlar uning moddiy-maishiy, iqtisodiy negizi o’zgarishiga bevosita bog’liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva A.R. *Oila psixologiyasi*. O’quv qo’llanma. – F., 2025. – 252 b.
2. Abdullayeva A.R. *Nikoh yoshining nikoh mustahkamligiga ta’sirining ijtimoiy-psixologik omillari*. Monografiya. – 2022. – 124 b.
3. Karimova V.M. *Oilaviy munosabatlar psixologiyasi*. O’quv qo’llanma. – T., 2006.
4. Yusupov E., Yusupov O’. *Oila ma’naviyat bulog’i*. – T., 2003. – 116 b.